

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.B.04.09.M
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

MINAJATDINOVA ZULKUMAR NUKUSBAEVNA

**JANUBIY OROLBO‘YI HAQIQIY ARILARI (HYMENOPTERA,
VESPIDAE) FAUNASI VA EKOLOGIYASI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Minajatdinova Zulkumar Nukusbaevna

Janubiy Orolbo‘yi haqiqiy arilari (Hymenoptera, Vespidae) faunasi va ekologiyasi..... 3

Минажатдинова Зулкумар Нукусбаевна

Фауна и экология настоящих ос (Hymenoptera, Vespidae) Южного Приаралья..... 21

Minajatdinova Zulkumar Nukusbaevna

Fauna and ecology of true wasps (Hymenoptera, Vespidae) of the Southern Aral region..... 41

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.B.04.09.M
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

MINAJATDINOVA ZULKUMAR NUKUSBAEVNA

**JANUBIY OROLBO‘YI HAQIQIY ARILARI (HYMENOPTERA,
VESPIDAE) FAUNASI VA EKOLOGIYASI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/BI808 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jumanov Muratbay Arephaevich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Bekbergenova Zaxira Omirbekovna
biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Bekchanova Moxiraxon Xudaybergan qizi
biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Nukus davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.B.04.09 M raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «10» oktyabr kuni soat 11⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy. Universitet majlislar zali. Tel: (+99861) 223-60-47, faks (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№579 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1 uy. Tel: (+99861) 223-59-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «25» sentyabr kuni tarqatildi.

(2026 yil «25» sentyabr №8-raqamli reestr bayonnomasi).



I.I.Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi o'rinbosari, b.f.d.,
professor

M.K.Begjanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, b.f.d.,
dotsent

Ya.I.Ametov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida haqiqiy arilar yoki vespida arilar biologik xilma-xillikning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilib, ularning sistematikasi, ekologik va bioekologik xususiyatlarini o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu hasharotlar oilasi yuqori ekologik moslashuvchanligi tufayli turli tabiiy va antropogen landshaftlarda keng tarqalgan. Vespida arilar ekotizimlarda faol yirtqich sifatida ishtirok etib, zararli hasharotlar sonini tabiiy ravishda tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ayrim vakillari o'simliklarning changlanish jarayonida qatnashib, biotsenozlar barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shadi. Iqlim o'zgarishi va antropogen omillar ushbu guruh vakillarining tarqalishi va turlar tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan, haqiqiy arilarning turlar tarkibi, hududiy tarqalishi, ekologik va morfologik xususiyatlarini kompleks o'rganish, shuningdek, ularning xo'jalikdagi ahamiyatini baholash muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri bo'lib, biologik muvozanatni saqlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda vespida arilar faunasini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar jadal rivojlanib, ushbu guruhning turlar tarkibi, sistematik holati va evolyutsion munosabatlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har yili turli mintaqalarda yangi turlar va kenja turlar aniqlanib, mavjud taksonlarning tasnifi takomillashtirilmoqda. Ayniqsa, kamyob va yo'qolib borayotgan vespida arilarni aniqlash, ularning tarqalish areallarini aniqlashtirish hamda muhofaza qilish choralari ishlab chiqish ustuvor ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Vespidae oilasi vakillarining ekologik, morfologik va fenologik xususiyatlarini chuqur o'rganish, ularning turli biotoplarga moslashuv darajasini baholash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, vespida arilarning biologik nazoratdagi roli, zararli hasharotlar sonini tartibga solishdagi ahamiyati hamda ayrim turlarining changlanish jarayonidagi ishtiroki ilmiy jihatdan keng o'rganilmoqda. Shuningdek, vespida arilar bo'yicha mavjud ma'lumotlarni tizimlashtirish, elektron kataloglar yaratish va xalqaro biologik ma'lumotlar bazalariga kiritishga kiritishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda vespida arilar bioxilma-xilligini aniqlash, ularni muhofaza qilish hamda zararli arilar turlariga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada tabiiy ekotizimlar barqarorligini ta'minlash, vespida arilarning kamyob va yo'qolib borayotgan turlarini muhofaza qilish choralari ishlab chiqish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Xususan, 2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasida¹ "biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishni ta'minlash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va kengaytirish, tabiiy ekotizimlarning degradatsiya sur'atlarini kamaytirish, hayvonlar va

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 11 iyundagi 484-son qarori.

o'simliklarning kamyob va yo'qolib borayotgan turlarini tiklash" vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, respublikamiz hududlarida tarqalgan vespida arilar turlarini aniqlash, ularning ekologik xususiyatlarini tahlil qilish, vespida arilarning mavsumiy fenologiyasini o'rganish, turli biotoplardagi tarqalishini ochib berish va kamyob turlarini muhofaza qilish usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 noyabrdagi 914-sonli "Hayvonot va o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini yuritish, ulardan foydalanish hajmlari va davlat kadastrini shakllantirish to'g'risida"gi qarori, shuningdek, 2019 yil 11 iyundagi 484-sonli "2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qaror va mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Vespidae oilasiga mansub hasharotlar faunasi, taksonomiyasi, tarqalishi, bioekologiyasi va ahamiyatini o'rganish borasidagi tadqiqotlar xorijlik olimlar K.Linnaeus (1758), J.C.Fabricius (1775, 1804), R.F.Bohart (1962–1976), G.A.Richards (1978), J.M.Carpenter (1981, 2024), F.Prezoto (2007), N.V.Kurzenko (2012), A.V.Antropov (2017), M.Selis (2018, 2020, 2024, 2025), S.Yang (2020), Z.Rahmani (2020), S.M.Gawas (2020), Sk.Yamane (2021), Y.Ramadhila (2023), L. F.Nah-Cimé (2025), A.Ruchin (2025), M.C.Carvalho (2025), K.M.Sarkale (2025), L.T.I.Borges (2025), O.Driauach (2026), B.K.Pia (2026) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida haqiqiy arilar faunasi, biologiyasi va ekologik xususiyatlariga oid ma'lumotlar G.Kostylev (1927), L.Castro va L.Dvořák (2009, 2010), J.Gusenleitner (2013), Ch.Schmid-Egger (2017), T.-J.Li (2022), V.L.Kazenas va A.B.Jdanko (2013), V.L.Kazenas (2014, 2016), A.V.Fateryga (2022, 2024), A.V.Fateryga va M.Selis (2024, 2025) larning tadqiqotlarida keltirilgan.

O'zbekistonda mazkur yo'nalishdagi tadqiqot natijalari André (1881–1886), F.Morawitz (1895), G.Kostylev (1940), V.V.Gussakovskiy (1935), Białynicki-Birula (1926), Van der Vecht & Fischer (1972), J.Gusenleitner (1972, 2012), P.Blüthgen (1955), A.G.Davletshina (1979), N.V.Kurzenko (1982), Cumming (1989), D.B.Daminova va A.Sh.Xamraev (2004), Oehlke (2012), J.Gusenleitner (2013), M.V.Mokrousov va V.A.Zryanin (2015), P.Girish Kumar (2019), A.V.Fateryga (2021, 2023), A.V.Fateryga va M.Yu.Proshchalykin (2022, 2024), U.R.Abdullaev (2022), G.S.Mirzaeva (2026) larning ishlarida keltirilgan.

Biroq, ilgari amalga oshirilgan tadqiqotlar Janubiy Orolbo‘yi hududi kabi o‘ziga xos tabiiy va geografik sharoitlari bilan ajralib turadigan mintaqalarda olib borilmagan. Shu sababli, mazkur hududda haqiqiy arilarning tur tarkibi, oziqlanish odatlari, fenologik xususiyatlari, turli biotoplardagi taqsimlanishi, zoogeografik o‘ziga xosliklari hamda keng va cheklangan tarqalgan turlarini chuqur o‘rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq davlat universiteti “Umumiy biologiya va fiziologiya” kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbekiston sharoitida hayvonlar faunasini o‘rganish (sistematika, geografiya, bioekologiya, muhofaza qilish va qarshi kurash choralari)” nomli ilmiy-tadqiqot mavzusi (2021-2025) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonning Janubiy Orolbo‘yi hududida haqiqiy arilarning hozirgi holatini baholash, ularning zoogeografik taqsimoti va ekologik xususiyatlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Janubiy Orolbo‘yi haqiqiy arilarining tur tarkibini va tarqalishini aniqlash;

haqiqiy arilarning ekologik xususiyatlarini tahlil etish;

Janubiy Orolbo‘yi hududidagi haqiqiy arilari turlarining mavsumiy fenologiyasini tadqiq qilish;

Janubiy Orolbo‘yida haqiqiy arilarning oziqlanishini o‘rganish;

Janubiy Orolbo‘yi hududidagi haqiqiy arilarning turli biotoplar bo‘yicha tarqalishini aniqlash;

Vespidae oilasi arilarining zoogeografik tarqalishini tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti Janubiy Orolbo‘yida tarqalgan haqiqiy arilari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Haqiqiy arilarning faunasi, taksonomiyasi, ekologiyasi, tarqalish xususiyatlari va Janubiy Orolbo‘yi hududida biotopik tarqalishi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada zoologik, entomologik, fenologik, ekologik, zoogeografik hamda statistik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Janubiy Orolbo‘yi hududi tabiiy va antropogen landshaftlaridagi Vespidae oilasining faunasi 3 ta kenja oila (Eumeninae, Polistinae, Vespinae) 20 ta avlodga mansub 36 turdan iborat ekani aniqlangan;

ilk bor O‘zbekiston faunasi uchun Vespidae oilasining *Onychopterocheilus uralensis* Kostylev, 1940 turi, Janubiy Orolbo‘yi hududi faunasi uchun esa 27 ta turi aniqlangan;

Janubiy Orolbo‘yi hududida yashovchi haqiqiy arilarining yil mavsumlari kesimida rivojlanish biologiyasiga doir fenologiyasi ochib berilgan;

Haqiqiy arilar faunasining 4 ta biotoplar bo‘yicha tarqalishi isbotlangan, aniqlangan turlar tarqalishi va yashash joylariga ko‘ra Palearktikaning 7 ta zoogeografik guruhga mansubligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Janubiy Orolbo‘yi hududining turli ekologik sharoitlarga ega biotoplarida haqiqiy arilar faunasining tur tarkibi va taksonomik xilma-xilligini aniqlash, dominant turlarining ulushini monitoring qilish, ularning hududiy tarqalish qonuniyatlari va biotoplar bilan ekologik bog‘liqligini baholash uslublari ishlab chiqilgan;

Janubiy Orolbo‘yi tabiiy ekotizimlari va aholi yashash hududlarida ekologik faolligi yo‘qori bo‘lgan arilar bilan bog‘liq xavf omillarini kamaytirish, bolalar va kattalarni ari chaqishidan muhofaza qilish hamda chaqish oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan allergik reaksiyalarning oldini olish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada klassik va zamonaviy tadqiqot usullari qo‘llanilganligi, ular asosida olingan natijalarning nazariy va amaliy mutanosibligi, natijalarining yetakchi va nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilishi, shuningdek, respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinishi hamda olingan tajriba natijalarining nazariy ma‘lumotlarga mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Janubiy Orolbo‘yi haqiqiy arilari faunasining to‘liq tahlil qilinganligi, ularning populyatsiyalar tarqalishining zamonaviy holati baholanganligi, yangi turlar qayd qilinganligi, shuningdek fenologiyasi va ekologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Janubiy Orolbo‘yi tabiiy va suniy landshaftlarida haqiqiy arilarning tarqalish xususiyatlari va zarari o‘rganilganligi, kam sonli tur sifatida keltirilgan *Chlorodynerus arenicola*, *Chlorodynerus incisipes*, *Euodynerus caspicus*, *Onychopterocheilus fausti* hamda *Pseudepipona kostylevi* turlarining O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” ga kiritilish zaruriyati mavjudligini ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Janubiy Orolbo‘yi haqiqiy arilari (Hymenoptera, Vespidae) faunasi va ekologiyasi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Janubiy Orolbo‘yining tabiiy va antropogen hududlarida haqiqiy arilar ayrim turlarining barcha biogeotsenozlarda ko‘p sonda bo‘lishi, ommaviy zararkunandalarni yo‘q qilishda butun bir kompleks tarzda doimo ishtiroki, ularning faoliyatlarini integrallashning samarali bo‘lishini ta‘minlashi bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘rmon va yashil hududlarni ko‘paytirish va cho‘llanishga qarshi kurashish agentligining Bo‘zotov, Qo‘ng‘irot, Mo‘ynoq va To‘rtkul tumani bo‘limlari amaliyotiga joriy qilingan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘rmon va yashil hududlarni ko‘paytirish va cho‘llanishga qarshi kurashish agentligining 2026-yil 26-iyundagi 1/1087-son ma‘lumotnomasi). Natijada respublika hududlari bo‘ylab haqiqiy arilar, O‘rmon xo‘jalik o‘simliklari zararkunandalariga tabiiy qarshi kurashishda, biologik kurash usuli sifatida qo‘llash choralarini ishlab chiqish imkonini bergan.

Janubiy Orolbo'yining tabiiy va agrobiotsenozlari haqiqiy arilarning ettita keng tarqalgan turlarning bioekologik xususiyatlari bo'yisha olingan natijalar va ularning salbiy tasirini pasaytirishi bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining Beruniy, Amudaryo, Kegeyli tumanlari bo'limlari amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2026-yil 26-iyundagi 02/08-2504-son ma'lumotnomasi). Natijada respublika hududlari bo'ylab haqiqiy arilarning asalarishilikka salbiy tasirini kamaytirish imkonini bergan.

Janubiy Orolbo'yining tabiiy va aholi yashash maskanlarida haqiqiy arilarning *Polistes watti* kabi invaziv turining barcha biogeotsenozlarda hamda aholi yashash punktlarida ko'p sonda bo'lishi, yosh bolalar va katta odomlarni chaqishi, ularning inson organizmiga allergik vaziyatlarni keltirishini oldini olish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Nukus va Taqiyotosh shaharlari bo'limlari amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2026-yil 26-iyundagi 01/4652-son ma'lumotnomasi). Natijada respublika hududlarida zaharli va allergik kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan haqiqiy arilardan aholi salomatligini muhofaza qilish hamda ular bilan bog'liq xavflarning oldini olish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Haqiqiy arilarining o'rganilish holati**" deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi keltirilgan. Unda xorijiy davlatlar, Markaziy Osiyo va O'zbekiston olimlari tomonidan haqiqiy arilar oilasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan. Bobda haqiqiy arilar turlarining o'rganilish tarixi, faunasi, sistematikasi, biologiyasi,

zoogeografiyasi va ekologik xususiyatlari bo'yicha mavjud ma'lumotlar yoritilgan. Shuningdek, Vespidae oilasini o'rganishga oid hozirgi kungacha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari umumlashtirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Janubiy Orolbo‘yining tabiiy – geografik sharoitlari, tadqiqot materiallari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobi ikki bo‘limdan tashkil topgan bo‘lib, unda Janubiy Orolbo‘yi hududining tabiiy-geografik xususiyatlari, jumladan, iqlimi, tuproq qoplami, o‘simlik dunyosi va boshqa ekologik sharoitlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, tadqiqot materiallari, namunalar yig‘ish jarayonlari hamda foydalanilgan ilmiy usullar bayon etilgan. Dala tadqiqotlari 2024–2026-yillar davomida bahor, yoz va kuz fasllarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududi hamda Xorazm viloyatining turli tabiiy va antropogen biotoplarida amalga oshirildi. Tadqiqot davomida haqiqiy arilarning hududiy tarqalishini aks ettiruvchi geografik axborot tizimi (GAT) xaritalari ishlab chiqildi. Namuna yig‘ilgan joylarning geografik koordinatalari Maps.me ilovasi yordamida aniqlanib, olingan ma'lumotlar Google Earth dasturi orqali qayta ishlandi. Natijada tadqiqot hududlarida uchragan haqiqiy arilar turlarining tarqalish nuqtalari elektron xaritalarga kiritilib, yagona ma'lumotlar bazasi shakllantirildi (1-rasm).



1-rasm. Janubiy Orolbo‘yidan haqiqiy arilarning yig‘ilgan koordinatalarining xaritasi

Bobning ikkinchi bo‘limida tadqiqot materiallari va foydalanilgan usullar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Dala tadqiqotlari 2024-2026-yillar davomida Janubiy Orolbo‘yi hududlarida bahor, yoz va kuz mavsumlarida olib borildi. Tadqiqotlar davomida haqiqiy arilar (Vespidae) oilasiga mansub 1124 ta namuna yig‘ilib, laboratoriya sharoitida o‘rganildi va tahlil qilindi. Haqiqiy arilar namunalarini yig‘ishda umumqabul qilingan entomologik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Dala ishlarida entomologik sachok, Merik sariq plastik idishlari, Maleze tutqichi, pinset va fotoqayd vositalari qo‘llanildi. Yig‘ilgan

namunalar ehtiyotkorlik bilan terib olinib, 75 % li spirtda turli hajmdagi plastik idishlarda saqlandi. Keyinchalik namunalar laboratoriya sharoitida qayta ishlanib, ilmiy kolleksiya holiga keltirildi. Dala tadqiqotlari yakunlangandan so‘ng yig‘ilgan haqiqiy arilar namunalari Qoraqalpoq davlat universitetining Biologik tadqiqot usullari laboratoriyasiga olib kelindi va kolleksiya materiallari tayyorlandi. Bunda namunalar dastlab eksikatorlarda yumshatilib, maxsus entomologik taxtachalarga joylashtirildi. Hasharotlarning tashqi morfologik belgilarini saqlab qolish maqsadida qanotlari ehtiyotkorlik bilan yoyildi va yumshoq entomologik ignalar yordamida mahkamlandi. Birinchi juft qanot old tomirining tana markaziy o‘qiga nisbatan 90° holatda joylashishi ta’minlandi. Namunalar quritilgandan keyin ularning har biriga yig‘ilgan joyi, sanasi va boshqa zarur ma’lumotlarni aks ettiruvchi yorliqlar biriktirildi hamda maxsus kolleksiya qutilarida saqlandi (2-rasm).



2-rasm. Tadqiqot davomida tayyorlangan kolleksiya namunalari

Tadqiqot natijasida olingan ma’lumotlar statistik jihatdan qayta ishlanib, grafik va diagrammalar shaklida ifodalandi. Statistik tahlillar “Microsoft Excel 2016” hamda “TIBCO Software Statistica 13.5.0.17 for Windows” dasturlari yordamida amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning **“Janubiy Orolbo‘yi hududi haqiqiy arilarining (Vespidae) faunasi va taksonomik tavsifi”** deb nomlangan uchinchi bobi haqiqiy arilarning tur tarkibi, sistematik xilma-xilligi hamda hududiy tarqalish xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bobda 2024-2026-yillar davomida Janubiy Orolbo‘yi hududining turli biotoplaridan yig‘ilgan namunalar asosida olib borilgan sistematik va morfologik tahlil natijalari keltirilgan.


Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Janubiy Orolbo‘yi hududida haqiqiy arilar oilasiga mansub 3 ta kenja oila, 20 ta avlod va 36 ta tur mavjudligi aniqlandi (1-jadval).

Janubiy Orolbo‘yi haqiqiy arilar faunasining zamonaviy tur tarkibi

Oila	Kenja oila	Avlod	Tur
Vespidae	Eumeninae	<i>Alastor</i> Lepeletier de Saint Fargeau, 1841	<i>Alastor ardens</i> Kostylev, 1935
		<i>Antepipona</i> de Saussure, 185	<i>Antepipona barrei</i> (Radoszkowski, 1893)
		<i>Chlorodynerus</i> Blüthgen, 1951	<i>Chlorodynerus arenicola</i> (Kostylev, 1935)
			<i>Chlorodynerus incisipes</i> (Kostylev, 1935)
		<i>Eumenes</i> Latreille, 1802	<i>Eumenes mediterraneus</i> Kriechbauber, 1879
			<i>Eumenes sareptanus</i> André, 1884
		<i>Euodynerus</i> Dalla Torre, 1904	<i>Euodynerus caspicus</i> (Moravitz, 1873)
			<i>Euodynerus strigatus</i> Radoszkowski, 1893
			<i>Euodynerus rufinus</i> Blüthgen, 1942
			<i>Euodynerus setosus</i> Gusenleitner, 1970
		<i>Eustenancistrocerus</i> Blüthgen, 1938	<i>Eustenancistrocerus askhabadensis</i> (Radoszkowski, 1886)
		<i>Jucancistrocerus</i> Blüthgen, 1938	<i>Jucancistrocerus consimilis</i> (Morawitz, 1895)
			<i>Jucancistrocerus atrofasciatus</i> (Moravitz, 1885)
		<i>Katamenes</i> Meado Waldo, 1910	<i>Katamenses dimidiatus</i> Brulle, 1832
			<i>Katamenes sichelii</i> (de Saussure, 1852)
		<i>Knemodynerus</i> Blüthgen, 1940	<i>Knemodynerus excellens</i> (Pérez, 1907)
		<i>Odynerus</i> Latreille, 1802	<i>Odynerus melanocephalus</i> (Gmelin, 1790)
		<i>Onychopterocheilus</i> Bluthgen, 1955	<i>Onychopterocheilus dallatorrei</i> (Morawitz, 1895)

			<i>Onychopterocheilus fausti</i> (Morawitz, 1873)
			<i>Onychopterocheilus uralensis</i> Kostylev, 1940
		<i>Paravespa</i> Radoszkoowski, 1886	<i>Paravespa quadricolor</i> (Morawitz, 1885)
		<i>Pseudepipona</i> Saussure, 1856	<i>Pseudepipona herzi</i> (Morawitz, 1895)
			<i>Pseudepipona herrichii</i> de Saussure, 1856
			<i>Pseudepipona kostylevi</i> Fateryga, 2022
			<i>Pseudepipona ushinskii</i> (Kostylev, 1940)
			<i>Pseudepipona straminea</i> (André, 1884)
		<i>Stenancistrocerus</i> de Saussure 1863	<i>Stenancistrocerus transcaspicus</i> (Kostylev, 1935)
		<i>Stenodynerus</i> Saussure, 1864	<i>Stenodynerus nudus</i> (Morawitz, 1889)
		<i>Xanthodynerus</i> Blüthgen, 1954	<i>Xanthodynerus dentipes</i> (Kostylev, 1940)
	Polistinae	<i>Polistes</i> Latreille, 1802	<i>Polistes dominula</i> Christ, 1791
			<i>Polistes wattii</i> Cameron 1900
			<i>Polistes gallicus</i> (Linnaeus, 1767)
	Vespinae	<i>Vespa</i> Linnaeus, 1758	<i>Vespa orientalis</i> Linnaeus, 1771
		<i>Dolichovespula</i> Rohwer, 1916	<i>Dolichovespula sylvestris</i> (Scopoli, 1763)
		<i>Vespula</i> Thomson, 1869	<i>Vespula germanica</i> (Fabricius, 1793)
			<i>Vespula rufa</i> (Linnaeus, 1758)
Jami:	3	20	36

Haqiqiy arilarning avlodlar kesimidagi tahlili natijasida turlar tarkibi turlicha taqsimlanganligi aniqlandi. Eng yuqori tur boyligi *Pseudepipona* avlodida qayd etilib, 5 ta tur (13,9%) ni tashkil etdi. Keyingi o‘rinlarda *Euodynerus* avlodi 4 ta tur (11,1%), *Onychopterocheilus* va *Polistes* avlodlari esa 3 tadan tur (8,3%) bilan ifodalandi. Qolgan avlodlar hudud faunasida 1-2 tadan tur bilan qayd etildi (3-rasm).



3-rasm. Janubiy Orolbo‘yida haqiqiy arilarning avlodlar kesimida taqsimlanishi

Uchinchi bobning ikkinchi bo‘limida Janubiy Orolbo‘yi haqiqiy arilarining faunistik tahlili bo‘limida hudud haqiqiy arilarining tur tarkibini aniqlash maqsadida mavjud adabiyot manbalari hamda 2024-2026-yillarda olib borilgan dala tadqiqotlari natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Xususan, ilmiy adabiyotlarning metatahlillari natijasining ko‘rsatishicha, 2026-yil holatiga ko‘ra T.T.Kulumbetova, L. Castro va L. Dvorak, U.R. Abdullayevlar tomonidan Janubiy Orolbo‘yi faunasi uchun Vespidae oilasining 3 kenga oila, 20 avlodga mansub 42 ta turi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.


2024-2026-yillarda olib borilgan dala tadqiqotlarimiz natijasida hududda jami 36 tur aniqlandi. Shulardan 7 tur - *Eumenes mediterraneus*, *Polistes dominula*, *Polistes watti*, *Polistes gallicus*, *Vespa orientalis*, *Dolichovespula sylvestris* va *Vespula germanica* - adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar bilan mos ravishda qayta tasdiqlandi. 6 ta tur (*Antepipona nigricornis*, *Eumenes crimensis*, *Eumenes dubius*, *Odynerus simillimus*, *Stenodynerus egregius*, *Vespa crabro*) esa tadqiqotlar davomida kuzatilmadi, bu ularning kam sonliligi, mavsumiyligi yoki arealining torligi bilan izohlanishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida *Onychopterocheilus uralensis* Kostylev, 1940 turi O‘zbekiston faunasi uchun ilk bor qayd etildi, 27 ta tur esa Janubiy Orolbo‘yi hududi uchun yangi tur sifatida keltirildi. Haqiqiy arilar turlarining uchrash chastotasi asosida tahlil qilinganda *Eumenes mediterraneus*, *Euodynerus rufinus*, *Knemodynerus excellens*, *Polistes dominula*, *Polistes wattii*, *Vespa orientalis* va *Vespula germanica* turlari hududda keng tarqalgan vakillar sifatida qayd etildi. *Chlorodynerus arenicola*, *Chlorodynerus incisipes*, *Euodynerus caspicus*, *Onychopterocheilus fausti*, *Paravespa quadricolor* hamda *Pseudepipona kostylevi* turlari esa kam uchraydigan turlar sifatida aniqlandi.

Uchinchi bobning uchinchi bo‘limida Janubiy Orolbo‘yi hududida tarqalgan haqiqiy arilar oilasi turlarining morfologik xususiyatlari yoritilgan. Unda turlarni aniqlashda foydalanilgan asosiy morfologik belgilari tahlil qilingan. O‘rganilgan


namunalar asosida haqiqiy arilar turlarining diagnostik belgilari aniqlanib, ularning taksonomik farqlari ko'rsatib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Janubiy Orolbo‘yi haqiqiy arilarining ekologik xususiyatlari”** deb nomlangan bobi to‘rt bo‘limdan iborat. Bobning birinchi bo‘limida Janubiy Orolbo‘yi hududida tarqalgan haqiqiy arilar (Vespidae) turlarining ekologik guruhlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, aniqlangan turlarning 53% kserofil ekologik guruhga mansub ekanligi qayd etildi. Mazkur holat hududning asosiy qismi (75-80%) cho‘l landshaftlaridan tashkil topganligi va quruq iqlim sharoitlari bilan bog‘liq. Shuningdek, ekologik moslashuvchanligi yuqori bo‘lgan mezokserofil turlar 25%, keng ekologik diapazonga ega evribiont turlar esa 22,2% ni tashkil etdi (4-rasm).



4-rasm. Janubiy Orolbo‘yida haqiqiy arilarning ekologik guruhlar bo‘yicha taqsimlanishi

To‘rtinchi bobning ikkinchi bo‘limida, Janubiy Orolbo‘yi haqiqiy arilari imagolarining mavsumiy uchish faoliyati tahlil qilinarkan, ularning fenologik jihatdan to‘rt asosiy guruhga ajralishi aniqlangan. Jumladan Janubiy Orolbo‘yi haqiqiy arilar imagolarining mavsumiy uchishi - 4 ta fenologik aspektga ajratilgan bo‘lib, bahorgi turlar guruhi 1 ta turni (5.6%), bahorgi-yozgi turlar 21 (58.3%), yozgi 5 tur (14%), Politsiklik 9 turni (25%) tashkil etishi qayd etildi (5-rasm).




5-rasm. Janubiy Orolbo‘yida haqiqiy arilari imagolarining mavsumiy faolligi

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, haqiqiy arilarning bahor-yozgi aspektida faol uchrashi o‘simliklarning vegetatsiya davri va oziqa resurslarining ko‘payishi bilan bog‘liq. Ushbu davrda gullaydigan o‘simliklarning ko‘pligi arilar uchun qulay trofik sharoit yaratadi. Shuningdek, hududning kontinental iqlimi va qulay harorat sharoitlari ularning uchish faolligi, ko‘payishi hamda populyatsiya rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Toʻrtinchi bobning uchunchi boʻlimida haqiqiy arilarning oziqlanish xususiyatlari haqiqiy arilar oilasi vakillarining oziqlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga koʻra, imagolari asosan oʻsimlik nektari va mevalari bilan oziqlanib, ayrim hollarda changlanish jarayonida ishtirok etishi aniqlandi. Lichinka bosqichida esa turlarning asosiy qismi turli hasharotlar, ayniqsa Lepidoptera turkumiga mansub kapalak lichinkalari bilan oziqlanishi qayd etildi. Oʻrganilgan 36 ta tur boʻyicha tahlillar natijasida lichinkalarning 83,3 % i asosan Lepidoptera lichinkalari hisobiga rivojlanishi aniqlandi. Ayrim turlar Coleoptera, Diptera va Orthoptera vakillaridan ham foydalanishi qayd etildi. Imago bosqichida esa asosiy oziqa manbai sifatida choʻl va yarim choʻl oʻsimliklari, xususan *Tamarix*, *Haloxylon* va *Salsola* avlodlari vakillari muhim ahamiyatga ega ekanligi belgilandi.

Toʻrtinchi bobning toʻrtinchi boʻlimida haqiqiy arilar turlarining generatsiya soniga bogʻliq holda ekologik guruhlariga ajratilishi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida aniqlangan turlar reproduktiv siklining xususiyatlariga koʻra monovoltin, bivoltin va polivoltin guruhlariga ajratildi.


Olingan natijalarga koʻra, Janubiy Orolboʻyi hududi haqiqiy arilar faunasida monovoltin turlar ustunlik qilishi aniqlandi. Jumladan, 36 ta aniqlangan turdan 15 tasi monovoltin, 10 tasi bivoltin va 11 tasi polivoltin guruhiga mansubligi qayd etildi (6-rasm).



6-rasm. Vespida arilarining hududlar boʻyicha voltinlik tarkibi

Umuman olganda, vespida arilarning voltinlik xususiyati ularning yashash muhiti, iqlim omillari va oziqa resurslari bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, turlar tarqalishida muhim ekologik mezonlardan biri hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Janubiy Orolboʻyi haqiqiy arilarining tarqalish xususiyatlari va amaliy ahamiyati”** deb nomlangan beshinchi bobi uch boʻlimdan iborat boʻlib, birinchi boʻlimi haqiqiy arilarining asosiy biotoplarda tarqalishiga bagʻishlangan. Bunda tadqiqotlar davomida aniqlangan 36 tur haqiqiy arilarning turli biotoplardagi tarqalish xususiyatlari oʻrganildi. Natijalar shuni koʻrsatdiki, biotoplar kesimida turlar tarkibi va uchrash koʻrsatkichlari sezilarli darajada farqlanadi. Eng yuqori tur xilma-xilligi choʻl biotopida qayd etilib, bu hududda 27 ta tur uchrashi aniqlandi, bu esa umumiy turlar sonining 75 % ini tashkil etdi. Koʻl atrofi biotoplarida 20 ta tur (55,6 %) qayd etilib, mazkur hududlarning namlik darajasi, oʻsimlik qoplami va oziqa resurslari jihatidan haqiqiy arilar uchun qulay sharoit yaratishi aniqlandi. Toʻqay biotoplarida 11 ta tur (30,6 %), agrotsenozlar va aholi yashash hududlarida esa 10 ta tur (27,8 %) uchrashi qayd etildi (7-rasm).



7-rasm. Janubiy Orolbo'yida haqiqiy arilarning biotoplarda taqsimlanishi

Shu bilan bir qatorda Janubiy Orolbo'yining turli xil biotoplari va landshaftlarining tur tarkibi haqidagi ma'lumotlar asosida ularning faunistik majmualarini taqqosladik. O'xshashlik darajasi bilan taqqoslash uchun P.Jaccard koeffitsienti ishlatildi. Janubiy Orolbo'yi bitoplarida tarqalgan haqiqiy arilar faunasining o'xshashlik darajalari o'rganilganda va taqqoslanganida quyidagi natijalarni oldik (2-jadval).

2-jadval

Janubiy Orolbo'yi hududlarida tarqalgan haqiqiy arilari turlarning o'xshashligi

(P. Jaccard koeffitsenti bo'yicha)


Biotop	Cho'l	To'qay	Agrosenoz, aholi yashash punkti	Ko'l atrofi
Cho'l	X	0.41	0.37	0.34
To'qay	0.41	X	0.91	0.55
Agrosenoz, aholi yashash punkti	0.37	0.91	X	0.50
Ko'l atrofi	0.34	0.55	0.50	X

Janubiy Orolbo'yi hududida haqiqiy arilar faunasi turli biotoplarda sezilarli darajada farqlanadi, bu esa P.Jaccard koeffitsienti bilan baholangan o'xshashlik natijalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, eng yuqori o'xshashlik darajasi To'qay va Agrosenoz, aholi yashash punktlari biotoplari o'rtasida ($K_j = 0,91$) kuzatildi. Bu yuqori koeffitsient hududdagi biotoplarning o'xshash ekologik sharoitlari va tur tarkibining qisman mos kelishini, shuningdek ayrim turlarning antropogen va tabiiy landshaftlarga moslashuvchanligini ko'rsatadi.

O'rtacha o'xshashliklar esa quyidagicha qayd etildi: Cho'l-To'qay ($K_j=0,41$), Cho'l-Agrosenoz ($K_j=0,37$) va To'qay-Ko'l atrofi ($K_j=0,55$). Bu ko'rsatkichlar turli biotoplarda ba'zi turlar uchrashi bilan bir qatorda, ularning ekologik moslashuvchanlik darajasi va hududning tabiiy landshaft xususiyatlari bilan bog'liq ekanligini bildiradi. Eng past o'xshashlik esa Cho'l va Ko'l atrofi biotoplari o'rtasida ($K_j = 0,34$) qayd etildi.

Beshinchi bobning ikkinchi bo‘limida haqiqiy arilarning zoogeografik tarqalishi tahlil etilgan. Bunda tadqiqotimiz davomida Janubiy Orolbo‘yi hududida qayd etilgan haqiqiy arilar oilasiga mansub 36 turlarni A.F. Emelyanov (1974) nomenklaturasi asosida ko‘rib chiqildi. Turlar yashash muhiti va ekologik belgilariga muvofiq holda tahlil qilinib, ular Palearktika turlarni 7 ta ekologik guruh tarkibiga ajratildi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, Janubiy Orolbo‘yi hududida qayd etilgan Vespidae turlarining zoogeografik tarkibi asosan Palearktika ustunligi bilan tavsiflanadi. Bu holat hududning geografik joylashuvi va tabiiy-iqlim sharoitlari bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, eng katta ulushni Transpalearktik turlar tashkil etadi - 13 tur (36,1%). Bu esa mazkur hudud faunasining keng arealli, ekologik moslashuvchan turlar hisobiga shakllanganini bildiradi. Ikkinchi yirik guruh sifatida Markaziy Osiyo endemik turlari ajralib turadi - 10 tur (27,8%). Endemik elementlarning yuqori ulushi Janubiy Orolbo‘yining mintaqaviy faunogenetik markaz sifatida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Qadimgi O‘rta yer dengizi elementi bilan bog‘liq turlar 4 ta (11,1%) va Eron-Turon turlari ham 4 ta (11,1%) ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar hudud faunasining shakllanishida qadimgi O‘rta yer dengizi va Eron-Turon biogeografik provinsiyalarining sezilarli ta’siri mavjudligini tasdiqlaydi. Cho‘l landshaftlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan Saxora-Gobiy turlari 2 ta (5,6%) va Turon turlari 1 ta (2,8%) qayd etildi. Ularning mavjudligi Janubiy Orolbo‘yi hududining cho‘l zonalar bilan uzviy aloqadorligini ko‘rsatadi. Nisbatan kam ulushni Boreal palearktik turlar - 2 ta (5,6%) tashkil etib, bu hududda sovuq iqlim elementlari cheklangan miqdorda uchrashini bildiradi (8-rasm).



8-rasm. Palearktika turlarining zoogeografik guruhlar bo'yicha foiz taqsimoti

Umuman olganda, zoogeografik tuzilma Janubiy Orolbo‘yi Vespidae faunasining shakllanishi ko‘p bosqichli tarixiy jarayonlar hamda turli biogeografik markazlarning o‘zaro ta’siri natijasi ekanini ko‘rsatadi. Transpalearktik va endemik elementlarning ustunligi hududning bir tomondan keng arealli turlar uchun migratsion yo‘lak, ikkinchi tomondan esa mahalliy evolyutsion markaz sifatida ahamiyatga egaligini ta’kidlaydi.

Beshinchi bobning ushunchi bo‘limida **Janubiy Orolbo‘yi haqiqiy arilarining amaliy ahamiyati yoritilgan.** Inson iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish davomida

albatta hasharotlarga turli xil ta'sir ko'rsatishi mumkin va o'z navbatida hasharotlarning ba'zilar madaniy o'simliklar va yaylovlar o'tlarining rivojlanishiga moslashadi va ommaviy bo'lib, ko'pincha odamlarga zarar yetkazishi mumkin. Janubiy Orolbo'yi hududlarida tarqalgan haqiqiy arilarining xo'jalik ahamiyatini salbiy va foydali faoliyatini ajratish mumkin.

Hozirgacha eng katta foyda o'simliklarning arilar tomonidan changlanishidir. Bizning kuzatishlarimizga ko'ra, arilar madaniy o'simliklar gullarga qaraganda va tez-tez yovvoyi o'simliklarning gullariga tashrif buyurishadi. Janubiy Orolbo'yining haqiqiy arilari uchun yana bir foydali rol zararkunandalarga qarshi kurashdir. Arilar naslning rivojlanishi uchun ko'p miqdorda oqsil kerak. Ular o'z avlodlarini boshqa hasharotlar bilan boqadi. Bizning kuzatuvlarimizga ko'ra, *Polistes* avlodi arilar ko'pincha turli xil kapalaklarning (tunlam, kuya, kuya, pilla kuya va ipak qurtlari) qurtlarini to'playdi va ularni izlab o'simliklarni diqqat bilan tekshiradilar. *Polistes* watti turli xil kapalaklar qurtlari va pilla hosil qiluvchi tanga qanotlilartukli qurtlarini o'lja qilishi mumkin. Bu arilar qishloq xo'jaligi va yaylovlar zararkunandalarini faol ravishda ovlaydilar. Natijada, bu arilar zararli turlar sonini ancha kamaytirdi. *Vespa orientalis* turining turli xil to'g'ri qanotlilarni ovlashini bir necha bor kuzatilgan. ***Salbiy faoliyati.*** Arilar odamlarga ham hujim qilib, odamlar solamatligiga jiddiy ta'sir qiladi va ayrim allergik kasalliklarni qo'zg'atadilar. Janubiy Orolbo'yining tabiiy va aholi yashash maskanlarida haqiqiy arilarning *Polistes watti* kabi invaziv turining barcha biogeotsenozlarda hamda aholi yashash punktlarida ko'p sonda tarqalayotganligi tadqiqotlar davomida aniqlanildi. Yosh bolalar va katta odamlarni chaqishi, ularning inson orgonizmiga allergik vaziyatlarni keltirishini oldini olish maqsadida ularning biologiyasi hamda hududga moslanish darajalari baholandi. Arilarning odamlarga hujimi oqibatida odamlarda turli allergik kasalliklar kelib chiqishi mumkin. Arilarning odamlarni chaqib olishi tufayli chaqib olgan joyidagi belgilaridan biri bu shish hosil qilishidir. Agar bitta odamni bir necha arilar chaqib olish kuzatilsa ancha yomon ta'sir ko'rsatadi. Bizning kuzatuvlarimizga va boshqa mualliflarning kuzatuvlariga ko'ra, buning zarari faqat madaniy ekin, qishloq xo'jaligi bo'lgan joylarda faol ravishda seziladi. Sharqiy shershen-qovoqari asalarilarni ovlaydi, ularning sonini kamaytiradi, bu asalarichilikka zarar yetkazadi. Ushbu arilar haqida shikoyatlar asalarichilar tomonidan tez-tez kelib turadi. Shuningdek arilarning yana zararli taraflaridan biri bu pishiqchilik davrida ko'plagan mevalarga zarar keltirishidir. Asosan yovvoyi arilar ichida *vespa orientalis* va *vespula germanica* va boshqa shu kabi arilarning mevalarni zararlash holatlari ko'proq kuzatiladi. Mevalardan turli oila vakillari xususan olma, o'rik, gilos, uzum kabilarning zararlanishi ko'proq uchraydi.

XULOSALAR

“Janubiy Orolbo‘yi haqiqiy arilari (Hymenoptera, Vespidae) faunasi va ekologiyasi” mavzusidagi falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Ilk bor Janubiy Orolbo‘yi hududida haqiqiy arilar faunasi turlari to‘la tahlil qilinib, Vespidae oilasining 3 ta kenja oila (Eumeninae, Polistinae, Vespinae) 20 ta avlodga mansub 36 turi aniqlandi. Haqiqiy arilarning kenja oilalar bo‘yicha taqsimlanishiga ko‘ra, eng ko‘p 29 tur (80.5%) Eumeninae kenja oilasiga mansub ekanligi aniqlandi.

2. Aniqlangan turlardan 27 ta tur Janubiy Orolbo‘yi hududi uchun, *Onychopterocheilus uralensis* Kostylev, 1940 turi tur esa O‘zbekiston faunasi uchun ilk bor qayd qilindi.

3. Janubiy Orolbo‘yi hududida 7 tur: *Eumenes mediterraneus*, *Euodynerus rufinus*, *Knemodynerus excellens*, *Polistes dominula*, *Polistes watti*, *Vespa orientalis* hamda *Vespula germanica* ko‘p uchraydiganligi, 6 ta tur: *Chlorodynerus arenicola*, *Chlorodynerus incisipes*, *Euodynerus caspicus*, *Onychopterocheilus fausti*, *Paravespa quadricolor* hamda *Pseudepipona kostylevi* kam uchraydiganligi aniqlandi.

4. Janubiy Orolbo‘yi hududida aniqlangan 36 ta turning 53% kserofil, 25% mezokserofil, 22.2% evribiont turlardan iborat ekanligi aniqlandi.

5. Janubiy Orolbo‘yida kuzatilgan haqiqiy arilar mavsumiy uchish faolligiga ko‘ra 4 ta fenologik aspektga ajratildi. Unga ko‘ra, bahorgi turlar guruhi 1 ta (5.6%), bahorgi-yozgi 21 ta (58.3%), yozgi 5 ta (14%), Politsiklik turlar guruhi 9 turni (25%) tashkil etdi.

6. Tadqiqot hududida haqiqiy arilar lichinkalarini oziqlantirish uchun asosan kapalaklar (Lepidoptera) turkimiga oid hasharotlarni ovlashi qayd etildi. Shuningdek, qazuvchi arilarning imagolari umumiy turlarning 58.3% turi *Tamarix* avlodi mansub o‘simlik nektari bilan oziqlanishi aniqlandi.

7. Cho‘l biotopida haqiqiy arilarning 27 ta (75%), ko‘l atrofi biotopida 20 ta (36.6%), to‘qay biotopida 11 ta (21%) va agrosenoz hamda aholi yashash punktlari biotopida 10 ta (27.8%) turlari uchraydi aniqlandi. Tadqiqot hududda *Eumenes mediterraneus*, *Euodynerus rufinus*, *Knemodynerus excellens*, *Polistes dominula*, *Polistes watti*, *Polistes gallicus*, *Vespa orientalis*, *Dolichovespula sylvestris*, *Vespula germanica* va *Vespula rufa* dominant tur sifatida barcha biotoplarda uchraydi. Biotoplardagi turlarning o‘xshashlik koeffitsienti To‘qay va Agrosenoz, aholi yashash punktlari biotoplarida eng yaqin (0.91%) bo‘lib, cho‘l va ko‘l atrofi biotoplarida aksincha, eng katta farq (o‘xshashlik 0.34%) kuzatiladi.

8. Tadqiqotimizda Janubiy Orolbo‘yida qayd etilgan 36 turni zoogeografiyasi o‘rganilganda Transpalearktik mintaqada haqiqiy arilar turlarining eng ko‘pi 13 turi (36.1%) ushbu hududlarda tarqalganini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, Markaziy Osiyo endemik turlari 10 ta (27.8%), Qadimgi O‘rta yer dengizi va Eron-Turon turlar 4 tadan (11.1%), Saxora-gobiy hamda Boreal palearktik turlar - 2 tadan (5,6%) hamda Turon turlari 1 ta (2,8%) dan tog‘ri kelishi aniqlandi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.B.04.09.M ПО ПРИСУЖДЕНИЮ

**УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

МИНАЖАТДИНОВА ЗУЛКУМАР НУКУСБАЕВНА

**ФАУНА И ЭКОЛОГИЯ НАСТОЯЩИХ ОС (HYMENOPTERA,
VESPIDAE) ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ**

03.00.06 – Зоология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Нукус - 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан за номером B2026.2.PhD/B1808.

Диссертационная работа выполнена в Каракалпакском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.karsu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель:

Жуманов Муратбай Арсенаевич
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Бекбергенова Захира Омирбековна
доктор биологических наук, старший научный сотрудник

Бекчанова Мохирахон Худайбергали кизи
доктор философии по биологическим наукам, доцент

Ведущая организация:

Нукусский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится «10» октября 2026 г. в 11⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.B.04.09.M при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, дом 1. Зал заседаний Каракалпакского государственного университета. Тел.: (+99861) 223-60-47, факс (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu_info@edu.uz).

С диссертации можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрировано за номером №579). Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, дом 1. Тел.: (+99861) 223-59-49.

Автореферат диссертации разослан «25» сентября 2026 года.

(реестр протокола рассылки №8 от «25» сентября 2026 года)



И.И.Абдуллаев
Заместитель
председателя
Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.б.н.,
профессор

М.К.Бегжанов
Ученый секретарь Научного
совета по присуждению ученых
степеней, д.ф.б.н., доцент

Я.И.Аметов
Председатель Научного семинара
при Научном совете по
присуждению ученых степеней,
д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день в мировом масштабе настоящие осы, или осы семейства Vespidae, признаны важной составляющей биологического разнообразия, а изучение их систематики, экологических и биоэкологических особенностей является одной из актуальных научных задач. Данное семейство насекомых широко распространено в различных природных и антропогенных ландшафтах благодаря своей высокой экологической адаптивности. Осы-веспиды, являясь активными хищниками в экосистемах, играют важную роль в естественном регулировании численности вредных насекомых. Наряду с этим, некоторые их представители участвуют в процессе опыления растений, способствуя тем самым обеспечению стабильности биоценозов. Изменение климата и антропогенные факторы оказывают значительное влияние на распространение и видовой состав представителей этой группы. В связи с этим, комплексное изучение видового состава, территориального распространения, экологических и морфологических особенностей настоящих ос, а также оценка их хозяйственного значения является одной из важных научно-практических задач и имеет важное научно-практическое значение в поддержании биологического баланса.

В мире интенсивно развиваются научные исследования, направленные на изучение фауны ос-веспидов, при этом особое внимание уделяется определению видового состава, систематического статуса и эволюционных отношений этой группы. Ежегодно в разных регионах выявляются новые виды и подвиды, совершенствуется классификация существующих таксонов. В частности, одним из приоритетных научных направлений является выявление редких и исчезающих видов ос, уточнение ареалов их распространения и разработка мер по их охране. Углубленное изучение экологических, морфологических и фенологических особенностей представителей семейства Vespidae, оценка степени их адаптации к различным биотопам приобретает актуальное значение. Вместе с тем, в научном аспекте широко изучается роль ос-веспид в биологическом контроле, их значение в регулировании численности вредных насекомых, а также участие некоторых видов в процессе опыления. Также особое внимание уделяется систематизации имеющихся сведений об осах семейства Vespidae, созданию электронных каталогов и включению соответствующей информации в международные биологические базы данных.

В нашей республике особое внимание уделяется изучению биоразнообразия ос семейства Vespidae, их охране, а также разработке мер по борьбе с вредными видами ос. В связи с этим обеспечение устойчивости природных экосистем, разработка мер по охране редких и исчезающих видов ос определены в качестве одного из приоритетных направлений. В частности,

в Стратегии¹ по сохранению биологического разнообразия в Республике Узбекистан на период 2019-2028 годов определены задачи по “Обеспечению сохранения и устойчивого использования биологического разнообразия, развитию и расширению охраняемых природных территорий, снижению темпов деградации природных экосистем, восстановлению редких и исчезающих видов животных и растений.” Исходя из этих задач, важное научное и практическое значение приобретают определение видов ос, распространенных на территориях нашей республики, анализ их экологических особенностей, изучение сезонной фенологии ос, раскрытие их распространения в различных биотопах и разработка методов охраны редких видов.

